

**МТТ ЛАРДА ЎОЗГИ СОГ'ЛОМЛАШТИРИШ МАВСУМИНИ  
ТАШКИЛ ЭТИШДА ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВ**

***Abduraxmonova Nilufar Abduraximovna***  
*Marg'ilon pedagogika kolleji yetakchi óqituvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini samarali tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning faol dam olishini ta’minalash, jismoniy faoliytni oshirish, psixologik quvvatni tiklash, ekologik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kabi jihatlar asosiy e’tibor markazida bo‘ladi. Maqolada innovatsion metodlar — STEAM texnologiyalari, tabiat bag‘rida ta’lim, loyiha asosida o‘rgatish, o‘yin orqali o‘qitish kabi yondashuvlar amaliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligining ahamiyati, farzandlarning yosh va individual xususiyatlariga mos faoliyat turlari asosida sog‘lomlashtirish jarayonini tashkil qilishning ilg‘or tajribalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, yozgi sog‘lomlashtirish, sog‘lom turmush tarzi, zamonaviy yondashuv, STEAM, ekologik tarbiya, kreativ faoliyat, ota-ona hamkorligi, bolalar salomatligi, innovatsion metodika.

**СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ ЛЕТНЕГО  
ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО СЕЗОНА В ДОШКОЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

**АННОТАЦИЯ**

В данной научной статье анализируются современные подходы к эффективной организации летнего оздоровительного сезона в дошкольных образовательных организациях. Основное внимание уделяется таким аспектам, как укрепление здоровья детей, обеспечение их активного отдыха, повышение двигательной активности, восстановление психологических сил, развитие экологической культуры и креативности. В статье рассматриваются инновационные методы - STEAM-технологии, образование на лоне природы, проектное обучение, обучение через игру в практической форме. Также подчеркивается важность сотрудничества педагогов и родителей, передовой опыт организации оздоровительного процесса на основе мероприятий, соответствующих возрасту и индивидуальным особенностям детей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, летнее здоровье, здоровый образ жизни, современный подход, STEAM, экологическое образование,

творческая деятельность, родительское сотрудничество, здоровье детей, инновационная методика.

## A MODERN APPROACH TO ORGANIZING THE SUMMER HEALTH SEASON IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

---

### ANNOTATION

This scientific article analyzes modern approaches to effectively organizing the summer health season in preschool educational organizations. The main focus is on aspects such as strengthening children's health, ensuring their active recreation, increasing physical activity, restoring psychological strength, developing ecological culture and creativity. The article considers innovative methods - STEAM technologies, education in the bosom of nature, project-based learning, and learning through play in a practical way. It also highlights the importance of cooperation between educators and parents, and best practices in organizing the health process based on activities appropriate to the age and individual characteristics of children.

**Keywords:** preschool education, summer health, healthy lifestyle, modern approach, STEAM, ecological education, creative activities, parental cooperation, children's health, innovative methodology.

### KIRISH

Bugungi globallashuv va texnologiyalar asrida ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) yozgi sog'lomlashtirish mavsumini tashkil etish jarayonida bolalarning jismoniy, psixologik va aqliy salomatligini ta'minlash, ularning individual ehtiyojlariga mos faoliyat turlarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozgi sog'lomlashtirish nafaqat bolalarning dam olish davri, balki ularning ijodiy fikrlash, ekologik ong, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiy faoliytkni rivojlantirish uchun ayni muddao bo'lgan imkoniyatdir.

MTTlarda yozgi davrni samarali tashkil etish orqali bolalarning tabiiy muhitga moslashuvi, guruhda ishlash ko'nikmalari va mustaqil qaror qabul qilish salohiyati rivojlanadi. Shu bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida o'rgatish, STEAM yondashuvi, ekologik va sport mashg'ulotlarini uyg'unlashtirish orqali tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, faolligi va salomatligi mustahkamlanadi.

Mazkur maqolada yozgi sog'lomlashtirish mavsumining zamonaviy tashkil etish usullari, pedagogik jarayonda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvar, shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligining samaradorlik darajasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritib beriladi.

## **NATIJALAR**

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish bolalarning sog‘ligini mustahkamlash, ularning jismoniy faolligi va ijodiy salohiyatini oshirishda ijobiy natija bermoqda. STEAM texnologiyalari, ochiq havodagi o‘yinlar, ekologik mashg‘ulotlar va loyiha asosida o‘qitish metodikasi orqali bolalarning tabiiy muhitga bo‘lgan qiziqishi kuchaydi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik kuchaytirildi, bolalarning yosh xususiyatlariga mos sog‘lomlashtiruvchi faoliyatlar samarali yo‘lga qo‘yildi. Umuman olganda, zamonaviy yondashuvlar yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini pedagogik va tarbiyaviy jihatdan yanada boyitishga xizmat qildi.

## **MUHOKAMA**

Bugungi globallashuv sharoitida bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi masalasi butun dunyo ta’lim tizimlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekistonda ham maktabgacha ta’lim tizimida yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini tashkil etish orqali bolalar salomatligini mustahkamlash, ularni faol va mazmunli dam olishga yo‘naltirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. 2023-yil davomida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida 3500 dan ortiq MTTda yozgi sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari tashkil qilindi. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumi, avvalo, bolalarning tabiiy sharoitda erkin harakat qilish imkoniyatini beradi. Bu orqali ular nafaqat jismoniy chiniqadi, balki o‘zaro muloqot madaniyatni, guruhda ishlash ko‘nikmalari va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. 2022-yilda o‘tkazilgan pedagogik kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, yozgi davrda sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarida ishtirok etgan bolalarning 68 foizi yangi ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan.

Zamonaviy yondashuvlar orasida ekologik ta’lim alohida o‘rin tutadi. Bolalar tabiat bilan bevosita muloqotda bo‘lish orqali ekologik madaniyat, hayvonot va o‘simlik dunyosiga nisbatan ehtiyyotkor munosabatni shakllantiradi. Bu borada “Yashil maktabgacha ta’lim” loyihasi doirasida 2023-yilda 200 dan ortiq MTTda kichik ekomaydanchalar tashkil etildi. Yozgi sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlariga STEAM yondashuvining integratsiyasi ham yuqori natijalar bermoqda. Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics yo‘nalishlari asosida tuzilgan o‘yinlar bolalarda kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. 2023-yilda Toshkent shahri va Farg‘ona viloyatidagi MTtlarda tajriba tariqasida joriy etilgan STEAM maydonchalari orqali 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish ko‘nikmasi 72% ga oshgani aniqlangan. O‘yinlar va faol mashg‘ulotlar yozgi sog‘lomlashtirish mavsumining asosi sanaladi. Shuningdek, tarbiyachilar tomonidan har kuni ertalabki badantarbiya mashg‘ulotlari, musobaqalar, raqs va qo‘shiqlar orqali bolalar kayfiyati ko‘tariladi. O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi

ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda o'tkazilgan yozgi sport haftaliklarida 470 mingdan ortiq maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirok etgan. Yozgi mavsumda bolalarning ruhan tinchlanishi va stressdan xoli bo'lishi uchun psixologik metodikalar joriy qilinmoqda. Masalan, nafas olish mashqlari, musiqa terapiyasi, qum bilan o'ynash kabi texnikalar orqali tarbiyalanuvchilarining ruhiy barqarorligi mustahkamlanadi. 2021-yilgi UNICEF hisobotiga ko'ra, bunday metodlar bolalarda tajovuzkorlikni 40% gacha kamaytirgan.

Bolalar salomatligini tiklashda to‘g‘ri ovqatlanish tartibi ham muhim o‘rin tutadi. Yozgi davrda vitaminlarga boy mahsulotlar, mevalar, salatlar va suyuqliklar bilan to‘yintirish bo‘yicha MTTlar uchun alohida menyular ishlab chiqilgan. 2023-yilgi sanitariya nazorati ma'lumotlariga ko'ra, 85% MTTda ovqatlar ratsioni yozgi mavsumga moslashtirilgan. Yozgi sog‘lomlashtirish jarayonining samarali tashkil etilishi tarbiyachilarining malakasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli pedagoglar uchun yozgi mavsum oldidan treninglar, metodik seminarlar va onlayn kurslar tashkil etiladi. 2023-yilda 12 mingdan ortiq maktabgacha ta’lim xodimi yozgi ta’lim dasturlarini joriy qilish bo‘yicha malaka oshirishdan o‘tgan.

Ota-onalar bilan muntazam hamkorlik yozgi mavsum samaradorligini oshiradi. Ular bolalar salomatligini nazorat qilish, sog‘lom turmush tarzini davom ettirish va oilada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faol ishtirok etmoqda. “Oila va MTT” konsepsiyasi doirasida 2022-yilda 600 dan ortiq seminarlarda 30 mingdan ziyod ota-onalar qatnashdi. Yozgi mavsumda ijodiy faoliyatlar ham muhim o‘rin tutadi. Rassomchilik, qo‘g‘irchoq teatri, musiqiy chiqishlar orqali bolalar o‘z iste’dodini namoyon qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayonlarda “Yozgi ijodiy ustaxona” loyihalari asosida bolalarning estetik dunyoqarashi kengaymoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan suv bilan bog‘liq o‘yinlar (masalan, hovuzda o‘ynash) ularning chiniqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2023-yil yoz mavsumida Farg‘ona va Buxoro viloyatlaridagi MTTlarning 19% i maxsus mo‘ljallangan suv maydonchalari bilan ta’minlandi. Yozgi davrda “mini-sayohatlar” (bog‘larga, hayvonot bog‘lariga, muzeylarga tashriflar) orqali bolalar bilim doirasini kengaytiradi. Bu orqali ular amaliy kuzatuvlar, savol-javoblar asosida yangi bilimlar oladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda respublika bo‘yicha 58 ming bola yozda kamida bitta madaniy muassasaga tashrif buyurgan. Shuningdek, yozgi sog‘lomlashtirishda milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya elementlari keng qo‘llaniladi. “Navro‘z”, “Do‘stlik kuni” kabi mavsumiy bayramlar bolalarda vatanparvarlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat tuyg‘ularini shakllantiradi. Yozgi mavsum davomida olib boriladigan monitoring va tahlil ishlari sog‘lomlashtirish dasturlarining samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Har bir MTTda oylik hisobotlar, foto- va video-hisobotlar, ota-onalar fikr-mulohazalari asosida tahlil o‘tkaziladi. Bolalarning yozgi sog‘lomlashtirishdagi ishtirokini aniqlashda ulardan olinadigan oddiy so‘rovnomalar, chizma va hikoya metodlari orqali

bola nuqtai nazari ham inobatga olinadi. Bu esa faoliyatni bola manfaatlariga yo‘naltirishga yordam beradi.

Zamonaviy yondashuvlar yordamida yozgi mavsum bolalar uchun stressdan xalos bo‘lish, yangi do‘sstar orttirish, faol harakatda bo‘lish va ijodiy salohiyatni namoyon qilish uchun noyob imkoniyatga aylanadi. Respublikamizda yozgi sog‘lomlashtirish tadbirlarini moliyalashtirish uchun davlat budgetidan ajratilayotgan mablag‘lar yildan-yilga ortmoqda. 2024-yil uchun bu maqsadga ajratilgan mablag‘ 2022-yilga nisbatan 21% ga ko‘paygan. Yozgi mavsumda mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlar va homiylarning hamkorligi orqali ko‘plab yangi sport anjomlari, o‘yinchoqlar, gigiyenik vositalar MTTlarga yetkazib berilmoqda. Muhokamadan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo‘sadi. Bu yo‘nalishda tizimli, ilg‘or, ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida ish olib borish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

## XULOSA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bolalarning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘tkazilgan tahlillar, amaliy kuzatuvlar va statistika shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’lim, STEAM yondashuvi, sport va ijodiy faoliyatlar bolalarning ko‘nikma va salohiyatini rivojlantirishda samaradorlikni oshirgan. Yozgi davr nafaqat bolalarning dam olish fasli, balki ularning intellektual, estetik va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatdir.

Shuningdek, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, ota-onalar bilan uzviiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, metodik qo‘llanmalarni yangilash va tahliliy monitoringlar asosida sog‘lomlashtirish faoliyatini tashkil qilish zarur. Yozgi mavsum uchun alohida dastur asosida har bir MTTda faol, qiziqarli, sog‘lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshirish bolalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni mustaqil hayotga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, zamonaviy yondashuvlarga asoslangan yozgi sog‘lomlashtirish faoliyati maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas va samarali qismi sifatida shakllanmoqda va yanada takomillashib borishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PQ-206-sun qarori “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiysi”.
3. G‘aniyeva, M. Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 248 b.

4. Soliyev, A. Pedagogik jarayonda ekologik ta’lim va tarbiyaning o‘rni. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 200 b.
5. Usmonova, N. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 300 b.
6. Tohirova, D. Yozgi sog‘lomlashtirish dasturlarining psixologik asoslari. – Andijon: Farzand, 2022. – 216 b.
7. Karimova, S. Bolalar psixologiyasi va sog‘lomlashtirish metodikasi. – Buxoro: Ilm Sarchashmasi, 2021. – 188 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. Bolalar salomatligi bo‘yicha statistik hisobot. – Toshkent, 2023.
9. UNICEF Uzbekistan. Early Childhood Education and Health Report. – Tashkent, 2022.
10. World Bank. Improving Preschool Education in Central Asia. – Washington D.C., 2021.